

**UZOQ MUDDAT DAVOLANISHGA MUHTOJ BO'LGAN O'QUVCHILAR UCHUN  
O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK  
XUSUSIYATLARI**

**Kurbanova Baxora Zafarovna**

Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi huzuridagi "Mehrli maktab" davlat ta'lif muassasasi umumiy o'rta ta'lifi tashkil etish bo'yicha pedagog xodim (boshlang'ich sinf o'qituvchisi)

**Raximova Gulzema Uchkunovna**

Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi huzuridagi "Mehrli maktab" davlat ta'lif muassasasi psixologi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada gospital ta'lifda o'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik xususiyatlar haqida so'z boradi. Gospital ta'lifi tashkil etishda bolalar bilan birligida kattalarning ham o'quv tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi bilan va psixologiyasi bilan shug'ullanishni ko'zda tutadi. Maqolada uzoq muddat davolanishga muhtojoj bo'lgan o'quvchilar uchun o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaliviy usullari, yo'llari va psixologik yondashuvlar haqida fikrlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** gospital ta'lif o'qituvchi, kattalar ta'lifi, o'qituvchi, psixologik xususiyatlar, o'qituvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari, o'qituvchilarning o'qtish faoliyati uslublari, xarakter urg'ulari, vakillik tizimi, himoya mexanizmlari, qo'shimcha kasbiy ta'lif tizimi.

**ABSTRACT:** The article talks about pedagogical features in the organization of educational process in hospital education. The organization of hospital education envisages the educational, spiritual and moral education and psychology of both adults and children. This article also describes modern methods, ways and psychological approaches for organizing the educational process for students who need long-term treatment.

**Key words:** teacher of hospital education, adult education, teacher, psychological characteristics, teachers' social needs, methods of teaching process, character emphasis, representational system, defense mechanisms, additional vocational education system.

Ta'lif tizimini isloq qilish natijasida ko'zlangan maqsad kelajak avlodni vatanga sadoqatli, mustaqil fikrlovchi, har qanday sharoitga tez moslashuvchi, to'g'ri qaror qabul qila oluvchi mutaxassislar tayyorlashdan iboratdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 22-dekabr kuni Oliy Majlisga murojaatnomasida "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'lidan o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oya, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalari, innovatsion yondashuvlar asosida boshlashimiz kerak" ekanligini e'tirof etishgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalar uchun maktabgacha ta'lif va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lif berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 5-maydag'i 234-son qarori qabul qilingan.

Mazkur qaror bilan bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida

hamda gemotologiya, onkologiya, klinik immunologiyasi markazida, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator sharoitda tegishli davlat tibbiyot muassasalarida davolanayotgan bolalarga maktabgacha va umumiy o‘rtta ta’lim berish jarayonlarini tashkil etish tartibi belgilangan.

“Mehrli matab” davlat ta’lim muassasasida umumiy o‘rtta ta’lim maktablarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- O‘quvchilar tomonidan muntazam bilim olinishini ta’minlash, ularning bilim olish ehtiyojini qondirish;
- O‘quvchilarda milliy hamda umumbashariy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish asosida yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, ularning ta’lim-tarbiya oishlari uchun shart-sharoit yaratib berish;
- O‘quvchilarning umumiy o‘rtta ta’limning davlat ta’lim standartlari hamda ular asosida ishlab chiqilgan maxsus ta’lim talablariga muvofiq bilim oishlarini ta’minlash;
- Ta’lim berish jarayonida o‘quvchilarning sog‘lig‘ini himoyalovchi dars jadvaliga rioya etilishini ta’minlash.

Shaxsni rivojlantirish xizmati vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ✓ Davolanayotgan bolalarning hayotga ijtimoiy moslashishini hamda ta’limni davom ettirishga tayyorligini ta’minlash
  - ✓ Bola organizmi tizimlarining funksional holatini baholash va prognozlash; bolaning individual psixofiziologik portretini yaratish, uning moyilligini, tarbiyaga ta’sir qilish strategiyasini tanlash qobiliyatini aniqlash (shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini tashkil etish);
  - ✓ O‘quvchilarning intellektual-ijodiy, ma’naviy faoliyatini faollashtirish, sport bilan shug‘ullanishi uchun sharoit yaratish;
  - ✓ Boshqa shunga o‘xshash xizmatlar va axborot-targ‘ibot tadbirlari bilan axborot aloqasi.
- O‘quv jarayonini tashkil etishda psixologik tavsiyanomalar :
- Davolanayotgan bolalarni kuzatish va psixologik holatini tahlil qilish
  - Maktabga bo‘lgan o‘quv motivini oshirish
  - Korreksion rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar olib borish

Aynan mana shu jihatlar (bizning fikrimizcha) bola rivojlanishining ajralmas sharti hisoblanadi, chunki ular ijtimoiy qimmatli xulq-atvor odatlari, sog‘lom turmush tarzi odatlari, mehnatsevarlik, chidamlilik, odamlar bilan til topisha olish, olivjanoblik va qiziqish, zakovat va boshqalar kabi fazilatlarni shakllantirishning kalitidir. Butun jamoaning ishi, shuningdek, har bir bolaning individual faolligi faoliyatli tamoyilni hisobga olgan holda tashkil etiladi, bola uchun har qanday faoliyat mazmunli, rag‘batlantiruvchi bo‘lishi kerak (klublar, studiyalar, ansambllar, sport seksiyalari, ilmiy jamiyatlar, modulli o‘qitish va hokazo).

Davolanayotganlar uchun Maktabgacha va matab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy tayanch o‘quv rejasi va ta’lim dasturlariga muvofiq alohida ishlab chiqilgan o‘quv rejasi asosida boshlang‘ich sinflarda 7 ta fandan umumiy o‘rtta ta’lim beriladi.

Davolanayotganlar tibbiyot muassasasida bo‘lib turgan vaqtida davolovchi shifokor xulosasiga ko‘ra ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan umumiy o‘rtta ta’limga jalb qilinadi. Dars mashg‘ulotlari davolovchi shifokor xulosasiga ko‘ra guruhlardan (sinf, gibrid) yoki harakatlanish va insonlar bilan muloqot qilish tavsiya etilmagan davolanayotganlar uchun individual tarzda olib boriladi. Zaruriyatga ko‘ra davolovchi shifokor xulosasi bilan o‘quvchi uchun tashkil etilgan dars jarayonlari vaqtinchalik to‘xtatilishi ham mumkin.

Dars mashg‘ulotining davomiyligi 30 daqiqa bo’ladi. Bolalarning salomatlik holatiga ko’ra dars mashg‘ulotlari qisqartirilishi mumkin. Bunda bir kunlik dars mashg‘ulotlari 1-4 sinflarda 3 soatdan, 5-11 sinflarda 4 soatdan oshmasligi lozim. O‘quv haftasi davomiyligi 5 kunlik asosida olib boriladi. Boshlang‘ich sinflarda 7 ta – ona tili, o‘qish savodxonligi, matematika, tabiiy fan, ingliz tili, rus tili, informatika fanlari o‘tiladi. Bundan tashqari o‘quvchilarning qiziqishlarini inobatga olgan holda Art pedagogika, shaxmat, shashka, musiqa, biser to‘qish, robototexnika, kitobxonlik to‘garaklariga ham jalb qilinadi.

Ma’lumki bugungi kunda dars jarayonida “Aqliy hujum”, “Krossvord”, “Sinkveyn”, “Muzyorar”, “Keys stady”, “Insert”, “Venn diogrammasi” va “BBB” texnologiyalaridan o‘quv jarayonini tashkil qilishda foydalanilmoqda. Ushbu texnologiyalar har qaysi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z darslarida qo’llashi va o‘zlari ham unga ijodiy yondashgan holda qo’shimchalar kiritishi mumkin. O‘ylaymizki boshlang‘ich sinflarda innovatsion metodlarni qo’llash orqali o‘tiladigan darslar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini ortishiga va o‘qituvchi uchun ham darsni yaxshi tashkil qilishga yordam beradi.

Professional ijodkorlik pedagogik loyiha yaratish uchun muhim. Chunki o‘qituvchi o‘quvchilarning individual xususiyatlarini, ularning ehtiyojlari va qiziqishlarini, xulq-atvor xususiyatlarini va boshqalarni hisobga olgan holda o‘quv materialini to‘g‘ri tanlashi kerak. Texnologik ijodkorlik esa pedagogik loyihalarni yaratish uchun zarur bo‘lgan pedagogik kasbiy mahoratning tarkibiy qismlarini to‘ldiradi. Texnologik ijodkorlik pedagogik loyihalashning samaradorligiga, pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirishning ancha yuqori sifatiga erishishga yordam beradi. Yoshlarni tarbiyalash va ularga zamonaviy bilimlar berishning sifatini oshirish orqali jamiyatimiz uchun barkamol shaxsni shakllantirish ta’lim tizimining eng asosiy maqsadlaridan hisoblanadi. Uzluksiz ta’lim jarayonida olib borilayotgan barcha harakatlar shu maqsadni amalga oshirishda muhimdir. Hozirgi vaqtda barcha fanlarni innovatsion texnologiyalar asosida o‘qitishning maqbul yo‘llari tadqiq qilinmoqda.

#### REFERENCES:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalar gemitologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalar uchun mактабгача ta’lim va tarbiya hamda umumiyl o‘rta ta’lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 5-maydag‘i 234-son qarori.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalar gemitologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalar uchun mактабгача ta’lim va tarbiya hamda umumiyl o‘rta ta’lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 29-martdag‘i 134-son qarori.
- 3.[www.xabar.uz/siyosat/prezident-shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlisga- murojaatnomasi](http://www.xabar.uz/siyosat/prezident-shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlisga-murojaatnomasi).
- 4.Slobodchikov V.I. “Антрапологическая перспектива отечественного Образования”. Yekaterinburg, 2009-264 b.
- 5.Zaporojes A. V. “Психология действия” M.: MPSI; Voronej: Izd-vo NPO «MODEK» 2000, S. 135.
- 6.Ibragimov R. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari”: Ped. Fanl. Dokt. Ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -Toshkent: Qori Niyoziy nomli O‘zPFITI, 2002.

7.I.K. Abdirimova. “Loyihalash faoliyatining bosqichlari, loyihaga yondashuv mohiyati va maqsadlar uyg‘unligi” Ilm fan va ta’lim jurnali 2020 18-26 b.

8.Qorayev S.B. Pedagogika. -T.: “Zebo-Print”. 2023 y.